

VARAXSHA - ANTIK VA ILK ŪRTA ASRLAR DAVRI SHAHRINI

Ortiqov Azamat

BuxDU talabasi

Boltayev Bobir

t.f.f.d. (PhD)

Buxoroning qadimgi aqoli manzillaridan Buxorxudotlarning uzok vakt yozgi qarorgoxi bo'lgan Varaxsha arxeolog olimlar diqqatini ko'pdan beri jalb qilib kelar edi. Xozirgi vaqtda oddiy tepalikka aylangan bu joy haqida' yurtimizga turli maqsadlarda safar uyushtirgan rus olimlari va sayyoqlari tomonidan dastlabki ma'lumotlar berilgan edi. XIX asr o'rtalarida A. Boris, XIX asr oxirlarida Shubinskiy ("Buxoro ocherklari"), Logofet singari olimlar Buxoro vohasini ta'riflab, uning kadimgi yodgorliklaridan hisoblangan. Varaxsha haqida eshitganlarini yozib qoldirgaplar. 1896 yilda Sitnyakovskiy 1913—1914 yillarda Zimin singari olimlar Buxoro haqida ma'lumotlar to'plab, Varaxsha haqida xam yozib qoldirgan edilar.

Buxorodan 40 km g'arbda joylashgan Raxvandun vohasida miloddan 1000 yil oldin yoki bundan 3000 yil oldin aholi yashagan, dehqonchilik yuzaga kelib, cho'l obod kilingan. Sug'orish tizimlari, hunarmandchilik, savdo — sotiq rivojlangan. Xom g'ishtgan qurilgan yodgorliklar pishiq g'ishtlarning ham ishlatilgani shaharsozlikning yuzaga kelganligi alomatidir.

Varaxsha maydoni —9 gektar, balandligi— 10 metrdan iborat antik davr yodgorligidir. Shahar devor bilan o'rab olingan, uning Shimoli — Sharqida o'rda (ark), ibodatxona xarobasi va saroyi bo'lgan. Narshaxiy "Varaxshani buxorodan qadimiy bo'lgan", deb yozgan edi. Varaxsha va uning atrofidagi qishloqlar xuddi buxorodagidek 12 kanaldan suv ichgan. Varaxshada xar 15 kunda bir yil oxirida 2.0 kun bozor bo'lgan. Bu joyda bir qator olimlar tomonidan turli davrda arxeologik tekshirishlar o'tkazilgan edi. Jumladan, 1937 yildan 1956 yilgacha arxeolog olim V.A. Shishkin tomonidan keng "hajmli tekshirish olib borilgan.-Shishkin ma'lumotlariga ko'ra, Varaxsha milod boshlarida yoki sal oldinroq qad ko'targan. Milodiy I —II asrlarda kushonlar davrida madaniy hayot gullab yashnagan. IV —V asrlarda O'rta osiyodagi, umuman, Urta Sharkdagi boshka ko'pgina shaharlar singari bu joy xam tanazzulga yuz tutgan. VI asrdan boshlab, yana qad ko'tarib, xo'jalnk hayoti va madaniy hayot tiklangan. Shu davrdan Buxorxudotlarning yozgi qarorgoxiga aylangan.

Varaxsha shahri bir necha marta qayta tiklangan. Restavrator — arxitektor Nelson tomonidan Varaxsha qasri tasviri rekonstruktsiya qilingan. Varaxsha qasri Buxorxudot Tugshoda tomonidan barpo qilingan, uning o'zi ham arablar tomonidan shu erda o'ldirilgan. Arablarning kirib kelishi davrida birmuncha xarob bo'la boshlagan. Yana qayta tiklanib, IX —X asrlarda gullab — yashnagan. XII asrdan boshlab Varaxsha va uning atroflari yana xarobalkka yuz tutgan. Buning sababi siyosiy voqealar bo'lmay, balki Zarafshonning yuqori qismida sug'oriladigan ekin erlarining kengayishi natijasida Zarafshon suvining ko'plab olinishi oqibatida uning quyi qismida, Varaxsha va uning atroflarida dastlab suv tanqisligi keyin qurg'okchilik yuzaga kelib, ekin erlari, daraxtzoru bog'lar kamayib borib, xarob bo'la boshlagan, buning oqibatida cho'l bostirib kela boshlagan.

Dastlabki tekshirishlarni olib borar ekan, Shishkin boy madaniyatga duch kelganini qayd qilgan. Varaxshadagi Hukmdorlar saroyi ochilib, kum va tuprokdan tozalanib, atroflicha o'rganiladi. Saroyda ikki zal: qizil zal va Sharqiy zal bo'lgan. U erdan topilgan mapgxur yodgorliklar — devoriy rasmlar bo'lib, ularda ko'pgina tasvirlar aks etgan. Jumladan relief shaklida ganchdan ok fil mingan kishilar, filga xujum kilayotgan xayvon, yulbars, qanotli tuya rasmlari mashhurdir. Shahar Chingizxon yurishigacha yashamagan. Shuning uchun xam uning halokati xarbiy harakatlar bilan bog'liq emas. XIII asrda O'rta Osiyodagi ko'plab shahar xarobaga uchraganligining sababi sun'iy sug'orishning qisqarishi edi.

Varaxsha tushkunlikka tushgan vaqt XII asrdan voxaning shimoliy g'arbida Shopurkom, Sultonobod, Zandana, kanallari buylab xo'jalik jonlanishi sodir bo'lib, kuyi qismi Jondor, Buxoro, Olot, Qorako'l tumanlarida qattiq suv tanqisligi yuzaga kelgan. Bu rayonlarning xalqlari erni sutormay dehqonchilik qilish usuli — qoqlamani yuzaga keltirganlar. Tadqiqotlar jarayonida Varaxshadan olovxona ham ochilib, qadimgi ajdodlarimizni otashparaslik e'tikodlariga oid ko'plab ashyoviy dalillar topildi. Bu erdan topilgan Buxorxudotlar tangalarida olov rasmining borligi, mapgxur devoriy rasmlarida muqaddas olov atrofida o'tirgan aslzodalar tasvirining mavjudligi otashparaslikning keng yoyilganligini, Varaxsha bunday e'tikod markazlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Chiqqan dafinalarda bu erda xam marxumlarning suyagini go'shtdan tozalab, suyak ostodonlarda dafn qilingan. VIII asr boshlarida Samarqandda arab lashkarboshisi Nasr ibn Sayyor ishtirokida Buxorxudot Tugshodani uldiradilar va uning xizmatchilari marxum suyaklarini gushtdan tozalab, Buxoroga olib ketganlar. Bu e'tikod butun Urta Osiyoda bo'lgan edi.

Antik shaharlaridan biri bo'lgan Varaxsha o'zining devoriy rasmlari bilan mashhurdir. Afrosiyob, Panjikent devoriy rasmlari qanchalik ahamiyatli bo'lsa, Varaxsha suratlarining ahamiyati xam shunday katta ilmiy qiymatga egadir.

Qizil zaldagi rasmlarda Qora kuchlar bilan kurash, ov manzaralari tasvirlangan. Chavandoz filda o'tirib, yirtqich sher, gepard hamlasini qaytarayotgan suratlari mashxurdir.

Sharqiy zal ko'p syujetli rasmlardan iborat bo'lib, asosiy saxnada ok kiyimda, qilich osgan holda taxtga o'tirgan podsho tasvirlangan. Bu rasmlar VI —VII asrlarda Buxorodagi mukammal va katta rassomchilik maktabning namunalari bo'lgan qanotli tuya rasmi Buxoro ustalari tomonidan kumush qadaxda bitilgan. Bu tasvir o'tmishda Buxoroliklarning tuyaga e'tikod qilganidan dalolat beradi. 1979 yilda Buxoro shahridagi arxeologik tekshirishlar jarayonida sapoldan yasalgan tuya haykalchasining totgilishi ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir. Shunga asoslanib, tuya — buxoroliklarning totemi bo'lgan degan xulosaga kelindi. Xitoy yilnomalarining guvohlik berishicha, Buxoro hu^mdorligining taxtida oldindan yasalgan 2 ta tuya haykalchasini yopishtirib qo'ygan holda tayyorlangan ekan.

1975—1977 yillarda Varaxshadagi qazilmalar jarayonida uning osti qatlamlaridan miloddan avvalgi V —IV asrlarga oid ashyolarining topilishi Narshaxiy ma'lumotlarini tasdiqlab, Varaxshada tekshirishlar davom ettirilishi lozimligini ko'rsatadi.

Literature:

1. Наршахий. Бухоро тарихи. -Тошкент: Шарқ баёзи. 1993.
2. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940.
3. Шишкин В.А. Археологические работы 1947 г. на городище Варахша. -Ташкент, 1948.- №5. -С.62—70.

4. Шишкин В.А. Некоторые итоги археологических работ на городище Варахша (1947-1953 гг.) // Труды Института истории и археологии Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1956.
5. Шишкин В.А. Варахша.-М.,1963.
6. Нильсен В.А. Варахшская цитадель. Археологические исследования в городе Варахша. - Ташкент, 1956.